

**MUHAMMAD YUSUFNING “SAMARQAND” SHE’RI TAHLILI**

Roziqova Ruxshona,

Osiyo xalqaro universiteti 8- FT (o’)-25 guruh talabasi

Ilmiy rahbar : OXU, o’zbek va rus filologiyasi kafedrasi professori

Shoira Nematovna Axmedova

Annotatsiya. *Muhammad Yusuf o’zbek zamonaviy she’riyatining eng yorqin vakillaridan biri hisoblanadi. Uning ijodi xalq qalbiga yaqin, samimiy, xalqona ohanglar bilan sug’orilgan. Shoirning asarlarida Vatan dardi, milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar va insoniy iztiroblar markaziy mavzu sifatida namoyon bo’ladi. Maqolada Muhammad Yusufning “Samarqand” she’ri tahlil qilingan, uning o’ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *shoir, Vatan, obraz, his-tuyg’u, kechinma, badiiy matn, adabiyot, she’riyat.*

Abstract. *Muhammad Yusuf is considered one of the brightest representatives of modern Uzbek poetry. His work is imbued with sincere, folk melodies, close to the heart of the people. In the poet's works, the longing for the Motherland, national values, historical figures and human suffering are reflected as central themes. The article analyzes Muhammad Yusuf's poem "Samarkand".*

Keywords: *poet, Motherland, image, feeling, experience, literary text, literature, poetry.*

Kirish. Hozirgi davr o’zbek milliy’ adabiyotining ko’zga ko’ringan iste’dodli shoirlaridan biri Muhammad Yusufdir. U 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani, Qovunchi qishlog’ida oddiy oilada tavallud topdi. O’rta maktabni tugatgandan so’ng respublika Rus tili va adabiyoti institutini (1978) tamomladi. 1978—1980 yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980—1986 yillarda «Toshkent oqshomi» ro’znomasida, 1986—1992 yillarda esa G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida, «O’zbekiston ovozi» ro’znomasida faoliyat ko’rsatgan edi.



Shoir o'nga yaqin she'riy to'plamlarning, o'nlab qo'shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalb kirib ulgurgan. Uning dastlabki she'rlari birinchi bor «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» ro'znomasida 1976 yilda chop etilgan. Shundan so'ng «Tanish teraklar» (1985), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989) «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992) kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989 yilda esa «Uyqudagi qiz» nomli she'riy to'plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi.

Tadqiqot maqsadi: Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusufning

mashhur she'rlaridan biri “Samarqand” she'rini tahlil qilib, ma'lum xulosalar chiqarishdan iborat.

Metodlar va materiallar : Analitik tahlil metodidan foydalanildi. Manba sifatida shoir she'rlarining elektron nusxalaridan, shoir kitoblaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar: Muhammad Yusuf rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi. Shuning uchun ham uning she'riyati butun ma'naviyatga to'la, muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rinadi. Shunday asarlardan biri — “Samarqand” she'ridir. Bu she'rda shoir buyuk alloma Mirzo Ulug'bek qismatini eslab, uning fojiali taqdirini insoniy dard bilan uyg'unlashtiradi. She'rning umumiy mazmuni tarixiy voqeaga asoslangan bo'lsa-da, unda ota qalbining iztirobi, insoniy armon va hayqiriq ifodalangan. She'r ohangdorligi bilan ham o'quvchini larzaga soladi.

Sherda takror va refrenning o'rni. She'rning asosiy badiiy vositalaridan biri — refren bo'lib xizmat qiluvchi takroriy misra: “Men dardimni kimga aytaman.” Bu misra deyarli har band oxirida takrorlanadi. Takror o'quvchiga iztirobning chuqurligini, og'riqning davomiyligini his qildiradi. She'rning ohangi aynan mana



shu takror orqali kuchayadi. Har safar bu ibora qayta o'qilganda, shoirning ichki hayqirig'i yangidan yangraydi.

Qofiyaviy tizim va musiqiy ohang kitobxonga chuqur taaassurot uyg'otadi. She'rda qofiyalar juda uyg'un qo'llangan. Masalan: "Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,

Mergan bolam, lochin ko'z bolam,

Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam..."

Bu misralarda qofiya (bolam – ko'z bolam – o'z bolam) nafaqat tovush uyg'unligini beradi, balki mazmunga ham kuch bag'ishlaydi. Qofiyaviy uyg'unlik she'rga musiqiylik olib kiradi, uni qo'shiq ohangiga yaqinlashtiradi.

Intonatsion o'zgarishlar. She'rda ohangning baland-pastligi, intonatsion almashinuvlari ham diqqatga sazovor. Ba'zi satrlar lirizm, samimiylik bilan o'qilsa, boshqalarida og'ir drammatizm ustunlik qiladi. Masalan:

"Tanim muzlab goh tosh qotaman,

Men shoh emas, axir otaman."

Bu misralar keskin, iztirobli ohangda o'qiladi va Ulug'bekning fojeasini chuqur his qildiradi. Shu tariqa she'rning ohangi bir maromda emas, balki turlicha intonatsiyalar orqali shakllanadi.

Shoir so'z tanlovi va obrazlilikla alohida e'tibor qaratgan. Muhammad Yusuf xalqona, sodda, ammo ta'sirli so'zlardan foydalanadi. Masalan: "mergan bolam, lochin ko'z bolam" kabi tasvirlar milliy timsollarga tayangan holda o'quvchi qalbida kuchli hissiyot uyg'otadi. Shu obrazlar tufayli she'rning ohangi yanada jo'shqinlashadi, badiiy ta'sir kuchayadi.

She'rda tarix va iztirob uyg'unligi. She'rning mazmuni tarixiy voqeaga asoslangan: Mirzo Ulug'bekning o'g'li qo'li bilan qatl etilishi. Ammo Muhammad Yusuf bu voqeani oddiy tarixiy fakt sifatida emas, balki insoniy dard va ota qalbining armoni sifatida ko'rsatadi. Tarixiylik va lirizm uyg'unlashib, ohangni yanada chuqurlashtiradi.

Xulosa. "Hech bir kitobxon yo'q-ki, uning javonidan Muhammad Yusufning kitobi topilmaydigan, hech bir inson yo'q-ki, uning misralaridan mehr,



muhabbat hissin tuymagan! U shunday iste'dodli shoir-ki, uning har bir she'rida xalqning quvonch-u iztiroblari, orzu va armonlarini madh ettirgan. Shoirning dilga yoqar misralarini hirgoya qilamagan bironta o'zbek farzandi topilmasa kerak. Muhammad Yusuf san'atkorlar ahliga ham katta yutuq keltirgan, o'lmas satrlarni bitgan desak ham mubolag'a bo'lmaydi".

Muhammad Yusufning "Samarqand" she'ri mazmunan boy, tarixiy asosga ega bo'lishi bilan birga, ohangdorligi jihatidan ham alohida o'rin tutadi. She'rda refren sifatida qo'llangan takroriy misralar, qofiyaviy uyg'unlik, intonatsion o'zgarishlar va obrazlarning musiqiy ta'siri ohangni yanada kuchaytirgan. Natijada, she'r faqat bir tarixiy voqeani emas, balki butun insoniyat uchun azobli bo'lgan fojialarni ifodalaydi. Bu jihatdan "Samarqand" she'ri o'zbek she'riyatida iztirob va tarixni ohangdor tarzda kuylashning yorqin namunasi sanaladi.

Adabiyotlar:

- 1.M.Yusuf. Erka kiyik. Toshkent. 2000.
2. <https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>.
- 3.Rahimjonov N.Mustaqillik davri o'zbek shariyati.Toshkent. 2002.